



GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSHLAR MA’NAVIYATIGA TA’SIR QILUVCHI VOSITALAR

Abdujalilova Muxlisaxon Abduxalil qizi, Qo‘qon davlat universiteti
“Boshlang‘ich ta‘lim” kafedrası o‘qituvchisi,
Egamberdiyeva Umidaxon Anvarjon qizi,
Quva tumani 34-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi,
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada shiddat bilan o‘tib borayotgan globallashuv davrida yoshlar ma’naviyati, dunyoqarashiga ta’sir etayotgan yot va zararli g‘oyalarning ta’siri haqida fikr bildiriladi. Shu bilan birgalikda hozirgi axborot xurujlari davrida yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Globallashuv davri, axborot xurujlari, ma’naviyat, mafkuraviy immunitet, yosh avlod, tarbiya, axborot maydoni, milliy qadriyat.

Аннотация: В статье рассматривается влияние чуждых и вредоносных идей на духовность и мировоззрение молодёжи в эпоху стремительно растущей глобализации. Обосновывается необходимость формирования идеологического иммунитета у молодёжи в условиях современных информационных атак.

Ключевые слова: Эпоха глобализации, информационные атаки, духовность, идеологический иммунитет, молодое поколение, образование, информационное пространство, национальные ценности.

Abstract: The article discusses the influence of foreign and harmful ideas on the spirituality and worldview of young people in the era of rapidly growing globalization. At the same time, it justifies the need to form ideological immunity among young people in the current era of information attacks.

Keywords: The era of globalization, information attacks, spirituality, ideological immunity, young generation, education, information space, national values.

XXI asr boshlariga kelib dunyo mamlakatlari o‘rtasida o‘zaro ta’sir shu qadar kuchayib ketdiki, bu jarayondan to‘la ixotalanib olgan birorta ham davlat yo‘q, deb to‘la ishonch bilan aytish mumkin. Globallashuv shunday jarayonki, undan chetda turaman, degan mamlakatlar uning ta’siriga ko‘proq uchrab qolishi mumkin. Bu borada O‘zbekiston Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Axborot xavfsizligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratish zarur” deb ta’kidlaydi. Shu o‘rinda aytish kerakki, hozirgi global dunyoda yagona axborot makoni shakllandi. Ushbu makondan munosib o‘rin egallash uchun bo‘ladigan kurash O‘zbekistonni ham chetda qoldirmaydi. Qanchadan-qancha mablag‘ axborotni qayta ishlash, axborotlarni belgilangan makonga yetkazish, yetkazilganda ham birinchi bo‘lishga qaratilgani bejiz emas.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov bu borada shunday deydi: "Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu

qadar tig'iz, shu qadar tezkorki, endi ilgarigidek, ha, bu voqea bizdan juda olisda yuzberibdi, uning bizga aloqasi yo'q, deb beparvo qarab bo'lmaydi. Anashunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotdan yuz yillar orqada qolib ketishi hech gap emas". Bugungi kunda dunyoda tarqatilayotgan 80% axborotni sanoqli axborot agentliklari yetkazib bermoqda. Bu ularning xohlagan ahborotni o'z mamlakatlari manfaatidan kelib chiqqan holda tarqatish imkonini beradi.

Insoniyat XXI asr boshiga kelib bir qator chegara bilmaydigan muammolarga duch keldi. Bu jahondagi yangi geosiyosiy taqsimot, yangi mintaqaviy nizolarni yuzaga kelishi, millatchilik, shovinizm, din niqobidagi ekstremizm, ekologik halokatning taxdidi kuchayishi, OITS, parranda grippi va boshqa yuqumli kasalliklarning tarqalishi, inson qalbi va ongini egallash uchun kurashni tobora kuchayishi. Ochiq axborot tizimlarida axboriy-psixologik xavfsizlikni ta'minlash hozirgi kunning dolzarb talabiga aylanmoqada. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugungi kunda dunyoning mafkuraviy manzarasi xozirda juda murakkablashib ketdi. Unda tasir kuchga ega bo'lishning eng maqbul yo'li sifatida mablag' qancha ketishidan qattiy nazar yirik axborot tarqatuvchilik mavqeyini egallash ekanligi hozirda sir bo'lmay qoldi. Jahonda informatsion urush ketayotganini hattoki, oddiy insonlar ham sezishi mumkin.

Hozirgi globallashuv sharoitida bazi mamlakatlardagi turli xil siyosiy, mafkuraviy va boshqa kuchlar o'zlarining g'arazli maqsadlari yo'lida ommaviy axborot kommunikatsiya vositalaridan ayniqsa, internet tarmog'idan foydalanib axborot erkinligini suistemol qilib, o'sib kelayotgan yosh avlodga axborot taxdidlarini ko'rsatish orqali, hali ong va hayotiy qarashlari shakllanib ulgurmagan yoshlarni chalg'itish, ularni ong va qalbini egallash yo'lidagi intilishlari kuchayib borayotgani hech kimga sir emasdir.

Bugungi yoshlarimizning aksariyati globallashuv tufayli Yevropa va xorij ma'naviy-madaniy oqimlar tasiriga ko'proq ishtiyoqmand bo'lib, milliy manaviyatimizning yuksak axloqiy tarbiyaga asoslangan tamoyillariga ixlosmandligi sust kechmoqda, bazi yoshlarni kiyinishi, fel-atvori, inson qadri, yurish-turishida yaqqol ko'zga tashlanib qolmoqda.

Bundan shu narsa anglashiladiki, xozirda har qanday axborot chegara bilmaslik xususiyatiga ega, shunday ekan endigina ongi, dunyoqarashi shakllanayotgan yosh avlodning manaviy olami dahilsizligini asrash har bir insonning zimmasidagi yazifa bolishi kerak. Bugungi kunda yurtimizda barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasi ota dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo'yilayotganligi, ayni shu ahborot hurujiga qarshi aytarli immunitetga ega bo'lgan, sog'lom fikrli kishilarni mavdonga chiqarish, zamonaviv mustaqil mamlakatimizning asosiy vazifasi ekanligi mutaxassislar tomonidan asoslab berilmoqda.

O'z davrining ma'rifatparvar olimi Abdurauf Fitrat "Oila" risolasida ahloq-odobda namunali avlodni tarbiylash, nafaqat bir millat yoki xalq uchun, ayni paytda butun insoniyat uchun g'oyatda muhim ekanligini zikr etib "Kimki badaxloq bolalarni tarbiya etsa, insoniyatga hizmat etmas, balki dushmanlik qilgan bo'ladi", deb yozgan edi. Bunda asosiy e'tibor oiladagi sog'lom ma'naviv-axloqiy muhit hamma zamonlarda ham ma'naviyat qo'rgoni bo'lib kelganligi, ayniqsa, hozirgi

zamonda bu juda dolzarb ekanligini anglatadi. Oiladagi muhit sog‘lom bo‘lsa, unda albatta, mustaqil fikrlovchi, ertangi kun uchun qayg‘uradigan insonlar voyaga yetadi. Axboriy kurashda O‘zbekiston o‘zining maqbul yo‘lini tanlab olgan, bu yo‘l yosh avlod mustaqil dunyoqarashini shakllantirishni asosiy vazifa deb biladi. Axborot maydonida nafaqat omon qolishni balki yengib chiqishning asosiy sharti erkin fikrlaydigan, ijtimoiy mas‘ullikni to‘g‘ri tushunadigan shaxsni tarbiyalash, uning uchun farovon turmush sharoitlarini yaratishdir. O‘zbekiston Prezidenti SH.M.Mirziyoyev aytganidek "Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa endigina hayotga kirib kelayotgan o‘gil-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim. Mana ulug‘ ajdodimiz nima deb yozganlar;

"Xalqning aniq maqsadi sari harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi yoki zaif bo‘lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e‘tibordan qolib o‘zgalarga tobe va qul-asir bo‘lishi ularning o‘z otalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog‘liq"³.

Respublika miqyosida qabul qilingan qonunlar va axborot texnologiyalarini rivojlantirish sohasida olib borilgan islohotlar tufayli bugungi kunda O‘zbekistonda axborot sohasida 1500 dan ziyod ommaviy axborot vositalari, 3000 dan ortiq axborot resurs markazlari faoliyat yuritmoqda. Internetdan foydalanuvchilar soni esa 22 milliondan oshiqni tashkil etmoqda, ularning aksariyatini yoshlar tashkil etishi bu boradagi faoliyatimizga jiddiy e‘tibor berishimizni taqozo etadi. Bugungi kunga qadar aholini avvalo yoshlar tomonidan axborotni qabul qilish, uni qayta ishlash hamda foydalanish omillariga jiddiy e‘tibor berilayotganligi aloqa va axborotlashtirish sohasida salmoqli ishlar amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi. Darhaqiqat, bugungi kunda hayotimizni ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Yoshlarimizning dunyo haqida, asosan ommaviy axborot vositalari orqali ma‘lumotga ega bo‘lishadi. Internet ham axborot bazasi sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Ammo g‘arb mamlakatlari madaniyatiga asoslangan bazi ko‘rsatuvlar, saytlar borki, bular axloqqa ziddir. Bu esa yoshlarni axloqiga, dunyoqarashiga salbiy ta‘sir qilishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi maruzasida "Haqiqatdan ham, hozirgi vaqtda yoshlar tarbiyasi biz uchun o‘z dolzarbligi va ahamiyatini hechqachon yo‘qotmaydigan masala bo‘lib qolmoqda. Bugun tez o‘zgarayotgan dunyo insoniyat oldiga, yoshlar oldiga yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko‘rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G‘arazli kuchlar sodda, g‘o‘r bolalarni o‘z otasiga, o‘z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zavol bo‘lmoqda. Bunday xavfli va taxlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko‘y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlar qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim", deydi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak axborot xurujlari doimiy ravishda sezilib turgan davrda yashayotgan ekanmiz, avvalo, yoshlarimiz ongida mafkuraviy immunitetni rivojlantirish shart. Bunga erishish uchun yoshlarimizni erkin va mustaqil

fikrlaydigan, iymon-e'tiqodli, aql-zakovatli, irodasi mustahkam, bilimli va dono bo'lishi, milliy qadriyatlarga hamda buyuk ajdodlar qoldirgan ilmiy va ma'naviy merosniqalbiga jo etmog'imiz zarur. Demak, oilaga, ta'limga, tengdoshlarga, ommaviy axborot vositalariga berilayotgan e'tibordan maqsad shuki, nafaqat xalqimizni, balki yoshlarimizning ma'naviy kamolotini yuksaltirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev Xalq so'zi 2018 yil 29 dekabr.
2. Sh.M.Mirziyoyev Farg'ona haqiqati."Bilimli avlod- buyuk kelajakning, tadbirkor xalq-farovon hayotning,do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir".
3. Mirziyoyev Sh.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi". Xalq so'zi. 2016-yil, 8-dekabr
4. Karimov I.A. "Milliy istiqlol mafkurasi xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir". Toshkent. O'zbekiston. 2000-yil